

«TASDIQLAYMAN»

“Uzbekistan Airways” AJ

Kuzatuv kengashining

2025-yil «29» 10

6 -sonli bayonnomasi

“UZBEKISTAN AIRWAYS” AKSIYADORLIK JAMIYATINING

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SIYOSATI

DSK. QMS-01

Nusxa № _____

Ogohlantirish! Ushbu hujjat “Normativ hujjatlar elektron kutubxonasi”dan foydalanilgandagina dolzarb hisoblanadigan elektron nazorat qilinadigan nusxadir. Aviakompaniya hujjat chop etilgan yoki “Normativ hujjatlar elektron kutubxonasi” korporativ ma’lumotlar bazasidan istalgan tashuvchiga ko’chirilgan paytdan boshlab uning dolzarbligiga kafolat bermaydi. Hujjatning nazorat qilinmaydigan nusxasidan foydalanish va bundan kelib chiqishi mumkin bo’lgan oqibatlar uchun javobgarlik foydalanuvchining zimmasiga yuklanadi.

0.1. Hujjat haqida ma'lumot

1. Hujjat haqida ma'lumot.

1. Mazkur Siyosat “Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati boshlig'i tomonidan ishlab chiqilgan.

2. “Uzbekistan Airways” AJ va uning tarkibiy bo'linmalari va sho'ba korxonalarining (keyingi o'rinlarda - AJ) halollik siyosatini ta'minlash, ya'ni xodimlar va umuman AJ o'rtasida korrupsiya va firibgarlikka qarshi kurashish madaniyatini oshirish, yuqori xulq-atvor standartlariga rioya qilish, shuningdek, AJ xodimlari tomonidan o'z vazifalarini bajarishda korrupsiya va firibgarlik holatlarining oldini olish bo'yicha pozitsiyasini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan.

3. Boshqaruv raisining 2020-yil 09-oktyabrdagi 329-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Uzbekistan Airways” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati” 1-sonli nashr o'rniga kiritilmoqda.

“Uzbekistan Airways” AJ Kuzatuv kengashining 2025-yil 29.10. dagi 6 -son yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

“Uzbekistan Airways” AJ Boshqaruvi raisining 2025-yil _____ dagi _____ -son buyrug'i bilan amalga kiritilmoqda.

4. Hujjat joylashgan joy.

Mazkur hujjatning asl nusxasi _____ -son bilan AJning Umumiy bo'limida (devonxona) saqlanadi. Ushbu hujjatning “Saqlovchilar ro'yxati”ga muvofiq hisobga olingan nusxalari hujjatlarni boshqarish va nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxslarda saqlanadi.

Mazkur hujjat AJ Me'yoriy hujjatlar elektron kutubxonasida .pdf formatida joylashtirilgan.

5. Agar ushbu Nizomni qo'llashda uning mazmuni bo'yicha biron-bir e'tirozlar yoki uni takomillashtirish bo'yicha takliflar va istaklar aniqlansa, ular keyingi nashrni tayyorlashda hisobga olinadi. Mazkur hujjatga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi qaror “Uzbekistan Airways” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati rahbari tomonidan AJ tarkibiy bo'linmalarining e'tiroz va takliflari, ichki yoki tashqi audit natijalari asosida qabul qilinadi.

6. Ushbu Siyosatning mazmuni bo'yicha fikr-mulohazalar yoki takliflarni, shuningdek, uni takomillashtirish bo'yicha istaklarni “UZBEKISTAN AIRWAYS” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmatiga yozma ravishda (yoki og'zaki ravishda) yuborishingizni so'raymiz:

tel.: 23-35

e-mail: Ruslan.Abdullin@uzairways.com

“Uzbekistan Airways” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati boshlig'i R.R. Abdullin  imzo 29.10.25 sana

0.2. Mundarija:

№	Sarlavha	Sahifa
0.1.	Hujjat haqida ma'lumot	0-1
0.2.	Mundarija	0-2
0.3.	Amaldagi sahifalar ro'yxati	0-4
0.4.	O'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatga olish varaqasi	0-5
0.5.	Tutqichlar ro'yxati	0-6
1.	Umumiy qoidalar	1-1
1.1.	Maqsad	1-1
1.2.	Qo'llanish sohasi	1-2
1.3.	Siyosatning huquqiy asosi	1-2
1.4.	Atamalar va ta'riflar	1-4
2.	KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY PRINSIPLARI	2-1
2.1.	Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari	2-1
3.	KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	3-1
3.1.	Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish	3-1
3.2.	Ish munosabati bilan sovg'alar va mehmondo'stlik nishonlarini qabul qilish	3-1
3.3.	AJ xodimlarining tashqi tomonlar tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda ishtirok etishini tartibga solish	3-2
3.4.	Kadrlar bilan ta'minlash jarayonlarini tartibga solish (xodimlarni tanlash, xizmat bo'yicha ko'tarish, moddiy rag'batlantirish)	3-3
3.5.	AJ faoliyatini o'rganish va tekshirish	3-3
3.6.	Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali hamkorlikni ta'minlash	3-4
3.7.	Xayriya va homiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta'minlash	3-4
3.8.	Ichki hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi	3-5
3.9.	Tashkiliy faoliyat sohasida yangi texnologiyalarni joriy etish	3-5
3.10.	Video va audio qayd etish va ulardan foydalanish	3-6
4.	KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TIZIMI ELEMENTLARI	4-1
4.1.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlar tizimi	4-1
4.2.	Yuqori rahbariyat ("Ton sverxu")	4-1
4.3.	Korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash va baholash	4-2
4.4.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul	4-2
4.5.	AJning korrupsiyaga qarshi siyosati haqida xabardorlikni ta'minlash	4-3
4.6.	Kontragentlar bilan tegishli hamkorlik	4-4
4.7.	Ishonchli hisobotni yuritish	4-4
4.8.	Ichki nazorat, audit va hisobot	4-4
4.9.	Monitoring, nazorat va hisobdorlik	4-4
4.10.	Korrupsiya xabarlar	4-5
5.	JAVOBGARLIK	5-1
6.	QAYTA KO'RISH VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI	6-1
AJ nomidan kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalar uchun "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi eslatma" A ilovasi		A-1

--	--

0.3. Amaldagi sahifalar ro'yxati

0-bob		
№ sahifalar	№ tuzatishlar	sana
0-1	0	
0-2	0	
0-3	0	
0-4	0	
0-5	0	
1-bob		
1-1	0	
1-2	0	
1-3	0	
1-4	0	
2-bob		
2-1	0	
2-2	0	
2-3	0	
2-4	0	
2-5	0	
3-bob		
3-1	0	
3-2	0	
3-3	0	
3-4	0	
3-5	0	
3-6	0	
4-bob		
4-1	0	
4-2	0	
4-3	0	
4-4	0	
4-5	0	
4-6	0	
A ilovasi		
A-1	0	

0.4. O‘zgartirish va qo‘shimchalarni ro‘yxatga olish varaqasi

O‘zgartirish soni	Asos	Sahifa raqami			O‘zgartirish kiritilgan sana	Kim tomonidan o‘zgartirish kiritilgan Imzo
		o‘zgartiriladigan	yangi	Chiqarib tashlangan		

0.5. Saqllovchilar ro'yxati

№	Nusxalar	Saqllovchilar
1	1	Boshqaruv raisining ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinbosari
2	2	Boshqaruv raisining transformatsiya, moliyaviy va privatizatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari
3	3	Boshqaruv raisining parvoz ishlarini tashkil etish bo'yicha o'rinbosari
5	5	Boshqaruv raisining tijorat va turizm masalalari bo'yicha o'rinbosari
6	6	Moliya departamenti
7	7	Ishlab chiqarishni servis tayyorlash boshqarmasi
8	8	Parvozlarni boshqarish markazi
9	9	Bortkuzatuvchilar xizmati departamenti
10	10	Yerda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish departamenti
11	11	Protokol-vizalar bo'limi
12	12	Mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi bo'limi
13	13	Strategik menejment va investitsiya loyihalari departamenti
14	14	IT-infratuzilma, raqamlashtirish va kiberxavfsizlik boshqarmasi
16	18	Xaridlar departamenti
17	17	Tijorat kelishuvlari va tariflar departamenti
18	18	Tashuvlar sotuvi va marketing departamenti
19	19	Parvoz xizmati departamenti
20	20	Parvozgga layoqatlilikni ta'minlash departamenti
22	22	Yig'ma axborot-tahlil bo'limi
23	23	O'zaro hisob-kitoblar departamenti
25	25	Parvozlarni xavfsizligi va sifatini ta'minlash boshqarmasi
26	26	Yuridik boshqarma
27	27	Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi
28	28	Jamoatchilik bilan aloqalar boshqarmasi
29	29	Yerdagi inshootlardan foydalanish va transport boshqarmasi
30	30	Ikkinchi bo'lim
31	31	Hujjatlar ijrosini nazorat qilish bo'limi
33	33	Umumiy bo'lim
34	34	“Uzbekistan Helicopters” MChJ
35	35	“Uzbekistan Airways Sales” filiali
36	36	“Training Center” MChJ
37	37	“UAT” MChJ
38	38	“Ketrin” MChJ
39	39	“Tashkent Sharqiy Airport” MChJ
40	40	Xavfsizlik boshqarmasi
41	41-50	Zaxira
42	51	Elektron versiyasi

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Maqsad

1.1. “Uzbekistan Airways” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (keyingi o‘rinlarda - Siyosat) korrupsiyaga qarshi kurashish, samarali korrupsiyaga qarshi tizim va komplayens nazorat tizimlarini yaratish, “Uzbekistan Airways” AJ faoliyatini tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi talablariga rioya qilish sohasida o‘zaro bog‘liq tartib-qoidalar, mexanizmlar va aniq chora-tadbirlar majmuini belgilovchi ichki me‘yoriy hujjat hisoblanadi.

1.1.2. “Uzbekistan Airways” AJ o‘z faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda Siyosatni qabul qiladi, o‘ziga xos va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarni va mavjud resurslarni hisobga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashishning o‘z mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi.

1.1.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati AJning kompaniya xodimlari, iste‘molchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro munosabatlarida amal qiladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini qurish va boshqarishning asosiy ustuvorliklari va tamoyillarini belgilaydi.

1.1.4. Quyidagilar AJning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining asosiy maqsadlari hisoblanadi:

AJ va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar xodimlarining O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlar talablarini tushunishi va ularga rioya etishi;

AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida, shuningdek, uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va kamaytirish;

AJ faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xodimlar va aholining AJ faoliyatiga nisbatan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

AJ xodimlari faoliyatida shaffoflik va odob-axloq me‘yorlariga rioya etilishini ta‘minlash;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni va ularning oqibatlarini, ularning kelib chiqishiga ko‘maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish, korrupsiyaga oid qilmishlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash;

AJda korrupsiyani bartaraf etish.

1.2. Qo‘llanish sohasi

1.2.1. Siyosat talablari “Uzbekistan Airways” AJning barcha tarkibiy bo‘linmalariga va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarga tatbiq etiladi.

1.2.2. AJning barcha xodimlari, egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, lavozim majburiyatlarini bajarishda ushbu Siyosat talablari va tamoyillariga amal qilishlari shart.

1.2.3. “Uzbekistan Airways” AJ tarkibiga kiruvchi sho'ba korxonalari korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, amaldagi qonunchilik normalariga, ushbu Siyosat qoidalariga va ISO 37001:2025 standarti talablariga zid bo'lmagan hujjatlarni (tartiblar, yo'riqnomalar) o'zlari ishlab chiqishlari mumkin.

1.2.4. Siyosatning alohida qoidalarini AJ kontragentlariga ular bilan tuzilgan shartnomalarda tegishli majburiyatlar belgilangan yoki qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda tatbiq etiladi.

1.3. Siyosatning huquqiy asosi.

1.3.1. Mazkur Siyosat quyidagilarga muvofiq ishlab chiqilgan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;

O'zbekiston Respublikasining qonunlari:

- “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida” 2024-yil 5-iyundagi O'RQ-931-son;
- “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida” 2023 yil 8 avgustdagi O'RQ-860-son;
- “Davlat xaridlari to'g'risida”gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son;
- “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 2017-yil 11-sentyabrdagi O'RQ-445-sonli (yangi tahriri);
- “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son;
- “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi (yangi tahriri) 2014-yil 6-maydagi O'RQ-370-son;
- “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi 2014-yil 5-maydagi O'RQ-369-son;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida”gi 2008-yil 7-iyuldagi O'RQ-158-son;
- “Homiylilik to'g'risida”gi 2007-yil 2-maydagi O'RQ-96-sonli qonuni;

1.3.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari

- 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida” PF-71-son farmoni;

– 2023-yil 27-noyabrdagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-200-son;

- 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257-son;

- 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-son;

- 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son;

- 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

1.3.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari:

- 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147-son;

- “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ-210-son;

- 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-228-son;

- 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son;

- 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son;

- “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori:

- “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 14-oktyabrdagi 595-son;

- “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son;

– “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son;

- “Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro‘yxati to‘g‘risida”gi 1992-yil 6-martdagi 103-sonli qarori.

1.3.5 Boshqa normativ-huquqiy hujjatlar

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 28.04.2025-yildagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 3383-1-son qarori;

- O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uslubiyotini tasdiqlash haqida” gi 2023-yil 31.10.dagi 3470-son buyrug‘i;

- O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 08.09.dagi “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 3319-son buyrug‘i;

– O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2023-yil 13.03.dagi “Sovg‘alarni olish va topshirish tartibi to‘g‘risida”gi 3425-son buyrug‘i;

– “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida 2024-yil 30.10.dagi 3565-son;

- ISO 37001:2016, 37001:2025 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimlari. Talablar va ularni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”

1.4 Atamalar va ta’riflar.

“Uzbekistan Airways” AJ - yuridik shaxs bo‘lib, uning kapitali belgilangan nominal qiymatga ega bo‘lgan aksiyalardan iborat.

AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati - AJning tarkibiy bo‘linmasi bo‘lib, “UZBEKISTAN AIRWAYS” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati to‘g‘risida nizom va AJ Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan amaldagi qonunchilik talablari, korporativ boshqaruv sohasidagi xalqaro standartlar va ilg‘or amaliyotlarni hisobga olgan holda tashkil etiladigan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni monitoring qilish, nazorat qilish va oldini olish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka rioya etilishini ta’minlash maqsadida Komplayens-nazorat xizmati bilan birgalikda AJ huzurida tashkil etilgan sho‘ba korxonalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens-nazorat xizmatlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni amalga oshiradi.

Komplayens-nazorat xizmati - AJ ijroiya organida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida komplayens-nazoratni amalga oshirish, shuningdek, milliy qonunchilik talablari, shuningdek, “UZBEKISTAN AIRWAYS” aksiyadorlik jamiyatining “Komplayens-nazorat xizmati to‘g‘risida”gi nizom, AJ rahbarining buyrug‘i bilan belgilangan sanksiyaviy nazorat choralari amalga oshirish bo‘yicha ishlarni amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linma.

AJ tarkibiy bo‘linmalari - AJning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi, mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan bo‘limlar, boshqarmalar, departamentlar, xizmatlar va vakolatxonalardir.

AJning sho‘ba korxonalari - ustav kapitalida “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatining ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar, ya’ni ta’sischisi “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyati hisoblangan mas’uliyati cheklangan tashkilotlardir. Bularga “Uzbekistan Helicopters” MCHJ, “O‘quv-markazi” MCHJ (O‘MM), “Uzbekistan Airways Technics” MCHJ (UAT), “Ketring” MCHJ, “Toshkent-Sharqiy Airport” MCHJ va boshqalar kiradi.

Xodim - ish beruvchi – “Uzbekistan Airways” AJ bilan mehnat munosabatlariga kirishgan va AJda istalgan lavozimni egallab turgan jismoniy shaxs, shuningdek, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalari asosida o‘zining funksional vazifalarini bajaruvchi boshqa jismoniy shaxslar.

Mansabdor shaxs:

doimiy, vaqtinchalik yoki maxsus asosda tayinlanadigan yoki saylanadigan, hokimiyat vakili vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida, korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda tashkiliy-boshqaruv, ma’muriy-xo‘jalik vazifalarini bajaradigan va yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirish vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, xalqaro tashkilotda yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma’muriy yoki sud organida ushbu vazifalarni bajaruvchi shaxs.

O‘zaro bog‘liq shaxslar - Tashkilot xodimi bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etuvchi shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalarining besh foizidan kamrog‘iga egalik qiluvchi shaxslar bundan mustasno.

Kontragent - AJ va uning shu‘ba korxonalari shartnomaviy munosabatlarga kirishgan yoki kirishmoqchi bo‘lgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs (mehnat munosabatlari bundan mustasno).

Davlat organlari va muassasalari - davlat organlari va boshqaruv organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari (shu jumladan vazirliklar, xizmatlar, agentliklar, markazlar va shu kabilar) va ularning tarkibiy bo‘linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar

Odob-axloq standartlari - xodim mehnat vazifalarini bajarishda ham, murakkab hayotiy vaziyatlarda ham qanday harakat qilishi kerakligini belgilovchi qoidalar yoki talablar.

Maxfiy axborot - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va AJning ichki me’yoriy hujjatlariga muvofiq foydalanilishi cheklangan axborot.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (anti-corruption system) - korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va AJning ichki hujjatlari buzilishining oldini olish va ularga qarshi kurashish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va boshqarish, shuningdek, AJ xodimlarining o‘z faoliyatini yuqori professional va axloqiy darajada amalga oshirishini ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun jalb etilgan elementlar majmui.

Korruptsiya - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi.

Korruptsiyaviy harakatlar - xodimning pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab qilgan harakati yoki harakatsizligi orqali moddiy naf olish maqsadida bevosita yoki bilvosita, shaxsan o‘zi yoki uchinchi shaxslar orqali sodir etilgan harakati yoki harakatsizligi, shu jumladan pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa turdagi mol-mulk va mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, tovlamachilik qilish, taklif qilish yoki berish, mulkiy tusdagi xizmatlarni ko‘rsatish, pora berish va (yoki) olish yoxud bunda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish (pora olish) uchun to‘lovlarni talab qilib olish va o‘z mansab vazifalaridan boshqacha tarzda qonunga xilof ravishda foydalanish;

Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik - korruptsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida javobgarlik belgilangan qilmish;

Xavf (risk) - AJning maqsadlariga erishishiga ta’sir ko‘rsatuvchi va moddiy hamda nomoddiy yo‘qotishlarga olib keluvchi noxush hodisalarning yuz berish ehtimoli.

Korruptsiyaviy xavf - korruptsiya ko‘rinishlari va ular keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlarning yuzaga kelishi ehtimoli yoki xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan AJ nomidan yoki ularning manfaatlarini ko‘zlab korruptsiyaviy harakatlarni sodir etish xavfi;

Reputatsiya xavfi - xodimlar, kontragentlar va boshqa manfaatdor shaxslarda AJ va uning faoliyati to‘g‘risida salbiy tasavvur shakllanishi natijasida AJda moddiy va nomoddiy yo‘qotishlar yuzaga kelishi xavfi

AJ xodimining shaxsiy manfaatdorligi - AJ yoki shu‘ba korxonaning xodimi yoki u bilan bog‘liq shaxslar bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilishi yoki ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo‘lgan har qanday foyda yoki ustunlik.

Xususan, AJ xodimi va (yoki) uning yaqin qarindoshlari, xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari mulkiy, korporativ yoki boshqa yaqin munosabatlar bilan bog‘langan fuqarolar yoki tashkilotlar tomonidan pul mablag‘lari, boshqa daromadlar, shu jumladan mulkiy huquqlar, mulkiy tusdagi xizmatlar, bajarilgan ishlar natijalari yoki boshqa naflar (imtiyozlar) ko‘rinishida qo‘shimcha (AJning ichki me‘yoriy hujjatlarida belgilanganlaridan tashqari) foyda olish imkoniyati.

Yaqin qarindoshlar - o‘zaro qarindoshlik yoki yaqin qarindoshlik aloqalarida bo‘lgan shaxslar bo‘lib, ularga ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari hamda farzandlari (jumladan, farzandlikka olinganlar) kiradi.

Manfaatlar to‘qnashuvi - shaxsiy manfaatdorlik (bevosita yoki bilvosita) shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat.

Favoritizm - AJda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, lavozim bo'yicha ko'tarish, mukofotlash va davlat mukofotlariga taqdim etish, ta'tillar berish yoki sanatoriy-kurortda davolanish va xorijga xizmat safariga yuborish, apellyatsiyalarni ko'rib chiqish, shuningdek, ish va navbatchilik jadvalarida navbatni belgilash bilan bog'liq vaziyatlarda tartib-qoidalarga rioya qilmaslik

Kronizm (do'stona munosabatlarga asoslangan favoritizm shakli) - do'stlarga yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy mulkiy yoki nomulkiy foyda keltirish maqsadida xizmat mavqe va/yoki vakolatlaridan foydalanish

Nepotizm (*birodarlik, qarindoshlik; qarindoshlik aloqalariga asoslangan favoritizm shakli*) - AJ xodimining kelib chiqishi bir xil bo'lgan uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, ustunlik va noxolis munosabat ko'rinishidagi shaxsiy manfaatdorligi, bir sulolaga (urug'ga) mansublik. Xususan, o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy foyda keltirish maqsadida hokimiyat va (yoki) ta'sirdan foydalanish, shuningdek, ularga asossiz mukofotlar hisoblash, shuningdek, yaqin qarindoshlari va do'stlarini ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash va boshqalar AJ manfaatlariga ziddir.

Mahalliychilik (*yurtdoshlik*) - faqat mahalliy (mintaqaviy) manfaatlarni ko'zlab harakat qilish. Bunda shaxsni uning kelib chiqishi (muayyan hududga mansubligi) va yaqin qarindoshlari egallab turgan xizmat mavqeiga ko'ra lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligi hisobga olinmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash.

Sheflik - AJ xodimiga yuqoriroq lavozimni egallab turgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratish, bahsli va boshqa vaziyatlarda uning tomonini qabul qilish ko'rinishidagi homiylik

Xayriya (xayriya yordami) - yuridik va jismoniy shaxslarning (xayr qiluvchilarning) Aksiyadorlik jamiyati yoki uning sho'ba korxonalariga ko'rsatadigan ixtiyoriy, beg'araz yordami bo'lib, u moddiy va (yoki) nomoddiy boyliklarni, shu jumladan pul mablag'larini bepul yoki imtiyozli shartlarda taqdim etish orqali namoyon bo'ladi. Bu yordam xayriya maqsadlarida muayyan ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va boshqa turdagi qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar - AJ, shu jumladan sho'ba korxonalarining belgilangan tartib-taomillari yoki harakatlarini bajarish bilan bog'liq standart tartib-taomillar bajarilishini ta'minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va me'yoriy normalar hamda qoidalarda nazarda tutilmagan noqonuniy taqdim etilgan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy ne'matlar.

Homiylik (homiylik yordami) - AJ (tarkibiy bo'linmalar va sho'ba korxonalari) yuridik va jismoniy shaxslari (homiyalar) tomonidan ular uchun xayriya maqsadlarida ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va boshqa turdagi yordam ko'rsatish, mol-mulk, shu jumladan pul mablag'lari berish shaklida ko'rsatiladigan yordam bo'lib, buning natijasida ularda homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga keladi.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish - aksiyadorlik jamiyati yoki sho'ba korxonalar mansabdor shaxsining o'z mansab vakolatlaridan qasddan foydalanishi natijasida fuqarolarning

huquqlari yoki qonun bilan himoyalangan manfaatlariga, yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishi yoki sezilarli miqdorda moddiy ziyon yetkazilishiga olib kelishi

Mansabdor shaxsning hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishi - AJ yoki sho'ba korxona mansabdor shaxsining qonun bilan unga berilgan vakolatlar doirasidan chetga chiqadigan, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazadigan harakatlarni qasddan sodir etishi.

Mansabdorlik loqaydligi - aksiyadorlik jamiyati yoki uning sho'ba korxonalari mansabdor shaxsining o'z vazifalariga e'tiborsizlik yoki vijdonsizlik bilan yondashishi natijasida ularni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, bu esa fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan himoyalangan manfaatlariga, yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi.

Pora olish - mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora beruvchining manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga jamiyat yoki uning tarkibiga kiruvchi korxonalar mansabdor shaxsining shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklarni olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi.

Pora berish - mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga aksiyadorlik jamiyati yoki sho'ba korxonalarining mansabdor shaxsiga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish.

Pora olish-berishda vositachilik qilish - pora olish yoki berish to'g'risida kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, xuddi shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'iga ko'ra bevosita pora berish.

Mansab vakolatini suiiste'mol qilish - aksiyadorlik jamiyati yoki uning sho'ba korxonalari mansabdor shaxsining o'z lavozim vakolatlarini qasddan noto'g'ri qo'llashi natijasida fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan himoyalangan manfaatlariga, yoxud davlat yoki jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishi yoki sezilarli darajada ziyon yetkazilishiga olib kelishi.

Harakatsizlik - AJ yoki sho'ba korxonalari mansabdor shaxsining o'z xizmat vazifasi bo'yicha bajarishi lozim yoki mumkin bo'lgan harakatlarni qasddan bajarmasligi, fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa, xuddi shuningdek huquqbuzarlikka yo'l qo'yish bilan bog'liq bo'lsa.

Mansab soxtakorligi - aksiyadorlik jamiyati yoki sho'ba korxonalarining mansabdor shaxsi tomonidan g'arazgo'ylik yoki boshqa manfaatlarni ko'zlab rasmiy hujjatlarga bila turib soxta ma'lumotlar va yozuvlar kiritish, hujjatlarni qalbakilashtirish yoki bila turib soxta hujjatlar tuzish va berish fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lsa.

Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish - ko‘rsatilgan mansabdor shaxs o‘z vakolatlaridan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora evaziga og‘dirib olayotgan shaxsning manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga aksiyadorlik jamiyati yoki shu‘ba korxonalarining mansabdor shaxsiga qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar berish yoki mulkiy manfaatdor etish.

Qonunga xilof ravishda moddiy qimmatliklar olish yoki mulkiy manfaatdor bo‘lish - aksiyadorlik jamiyati yoki uning tarkibiga kiruvchi korxonalar xodimining o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo‘lgan muayyan harakatni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olayotgan shaxs manfaatlarini ko‘zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib moddiy qimmatliklar olishi yoki mulkiy manfaatdor bo‘lishi.

Xizmat mavqeidan foydalangan holda sodir etilgan firibgarlik - aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilish yo‘li bilan AJ yoki sho‘ba korxonalarining mol-mulkini yoki mol-mulkka bo‘lgan huquqini egallab olish.

Korrupsiyaga qarshi (moliyaviy bo‘lmagan) audit - Korrupsiyaga qarshi kurashish va hisobot agentligining reyting dasturlarida ma‘lumotlarning to‘liq va ishonchli aks ettirilishini ta‘minlash, korrupsiya belgilari va sabablarini o‘z vaqtida aniqlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish yo‘li bilan AJ tarkibiy bo‘linmasi (Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat xizmati) ning Boshqaruv, AJ tarkibiy bo‘linmalari va sho‘ba korxonalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, ta‘sis va ichki hujjatlarga rioya etilishini o‘rganish, tekshirish va monitoring qilish orqali ularning ishini nazorat qilish va baholash bo‘yicha faoliyati;

2-bob. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI

2.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi quyidagi prinsiplar asosida tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi:

2.1.1. Qonuniylik (legitimlik) - AJ va uning sho'ba korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyat va chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or jahon tajribasiga, shuningdek AJning ichki hujjatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

2.1.2. Korrupsiyaga murosasizlik - AJ o'z faoliyati va sho'ba korxonalari faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga nisbatan murosasizlik pozitsiyasini egallaydi. AJ, uning sho'ba korxonalari xodimlari va AJ nomidan va/yoki uning manfaatlarini ko'zlab harakat qiluvchi boshqa shaxslarga quyidagilar qat'iyon taqiqlanadi:

2.1.2.1. Korrupsiya xavfini tug'dirishi mumkin bo'lgan tadbirlarda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish;

2.1.2.2. Korrupsiyaviy xatti-harakatlarda shaxsan yoki vositachilar orqali ishtirok etish, shu jumladan, pora, mulkiy yoki nomulkiy foyda taklif qilish, va'da berish, berish, so'rash va olish;

2.1.2.3. Ma'muriy, byurokratik va boshqa rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun har qanday shaklda, shu jumladan pul mablag'lari, boyliklar, xizmatlar yoki mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan boshqa foyda ko'rinishida, har qanday shaxslarga va har qanday shaxslar yoki tashkilotlardan, shu jumladan tijorat va notijorat tashkilotlari, hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, davlat xizmatchilari, shu jumladan xorijiy xizmatchilardan o'zi, AJ yoki uchinchi shaxslar uchun foyda olish maqsadida to'lovlarni amalga oshirish.

2.1.3. Ochiqlik va shaffoflik - AJ va uning sho'ba korxonalari xodimlarini, kontragentlar va boshqa manfaatdor shaxslarni, keng jamoatchilikni AJda qabul qilinayotgan va amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda).

2.1.3.1. AJ va uning sho'ba korxonalari xodimlari, kontragentlar va boshqa manfaatdor shaxslarning korrupsiya holatlari yoki korrupsiyaga qarshi kurashish bilan bog'liq ma'lumotlar haqida xabar berish imkoniyatini ta'minlash maqsadida. Korrupsiya holatlari to'g'risida xabar berish uchun AJ tomonidan maxsus axborot aloqa kanallari tashkil etilgan.

2.1.4. Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori rahbariyatning yetakchiligi va sodiqligi - yuqori rahbariyatning korrupsiyaga qarshi kurashda shaxsiy namuna ko'rsatishi. AJ rahbariyati korrupsiyaning har qanday shakl va ko'rinishlariga murosasiz munosabatda bo'lish madaniyatini shakllantirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Yuqori rahbariyat AJning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini belgilaydi va uni AJ va uning sho'ba korxonalarining barcha xodimlari, kontragentlari va manfaatdor shaxslarga yetkazishning samarali mexanizmlarini ta'minlaydi.

2.1.5. AJ va uning shu'ba korxonalari xodimlarining korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga jalb etilishi - AJ xodimlarga ushbu Siyosat va AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha boshqa ichki hujjatlarining mazmunini yetkazish, uning asosiy talablarini o'rgatish va korrupsiya faktlari to'g'risida xabar berish uchun axborot kanallarini ta'minlash orqali xodimlarning korrupsiyani har qanday shakl va ko'rinishlarda qabul qilmaslik (korrupsiyaga nisbatan murosasizlik) shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

2.1.6. Korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining oldini olish, tizimlilik va komplekslilik - korrupsiyaning oldini olishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi hamda AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatining barcha funksiyalari va

yo‘nalishlarini qamrab oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga integratsiyalashgan bo‘lishi lozim. AJ kontragentlar bilan har qanday munosabatlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarga jalb qilish xavfining oldini olish va minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi. AJ barcha kontragentlar va AJ hamda uning sho‘ba korxonalari xodimlari tomonidan biznesni halol yuritish va korrupsiyaning oldini olish uchun ushbu Siyosat tamoyillari va talablariga rioya etilishini olqishlaydi va rag‘batlantiradi.

2.1.7. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarlighi - AJ va uning sho‘ba korxonalarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etgan xodimlari egallab turgan lavozimi, mavqeyi, ish staji va boshqa sharoitlardan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va AJning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

2.1.8. Rahbariyatga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat qilish - AJ va uning sho‘ba korxonalarining har qanday xodimi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganligi to‘g‘risida ishonchli va asosli ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va AJning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rish uchun o‘zi ishlayotgan tarkibiy bo‘linma rahbariga, shuningdek AJ va uning sho‘ba korxonalari rahbariyatiga erkin murojaat qilishi mumkin.

2.1.9. Javob choralari va sanksiyalardan bosh tortish - agar biron bir xodim korrupsiyaning taxminiy holati haqida xabar bergan bo‘lsa yoki pora berish yoki olishdan, tijoratda pora olishdan yoki pora olishda vositachilik qilishdan bosh tortgan bo‘lsa, shu jumladan, agar bunday bosh tortish natijasida AJda boy berilgan foyda yoki tijorat va raqobatdosh ustunliklar paydo bo‘lgan bo‘lsa, rasmiy yoki norasmiy sanksiyalarga (jumladan, ishdan bo‘shatish, lavozimini pasaytirish, mukofotdan mahrum qilish) duchor bo‘lmasligi kerak.

Agar korrupsiyaning ehtimoliy holatlari to‘g‘risidagi xabar xizmat tekshiruvi davomida tasdiqlanmagan bo‘lsa, xodimga nisbatan sanksiyalar qabul qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tuhmat qilish yoki biron-bir imtiyoz olish maqsadida bila turib yolg‘on xabar yuborilgan taqdirda, bunday xabar muallifi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin;

2.10. Korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari, mexanizmlari, tartib-taomillarining yetarliligi va samaradorligi - AJ korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha ularni amalga oshirishda yetarli xarajatlar bilan aniq natijaga erishishni ta’minlaydigan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etadi.

2.11. Axborot texnologiyalari va fan-texnika yutuqlaridan foydalanish - AJ va uning sho‘ba korxonalari o‘z faoliyatida va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishda ilmiy ishlanmalarining eng so‘nggi yutuqlaridan, shu jumladan, kompleks axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi.

2.12. Fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlik qilish - AJ o‘z funksiyalarini bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolisona nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi.

2.13. Tizimli monitoring, tahlil va baholash. AJ davriy ravishda (yarim yilda bir marta yoki zaruratga qarab) umuman tizim faoliyati va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy etilgan tartib-taomillarni monitoring va tahlil qiladi, ularga rioya etilishini nazorat qiladi, shuningdek, uning samaradorligi va natijadorligi ko‘rsatkichlarini baholaydi.

2.14. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishning uzluksizligi - AJ va uning sho‘ba korxonalari korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi va natijadorligini doimiy oshirib borishni ta’minlash maqsadida monitoring, tahlil va nazorat asosida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish (bartaraf etish, kamaytirish) choralarining samaradorligini doimiy oshirib borish choralarini ko‘radi.

3-bob. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

3.1 Manfaatlarni to‘qnashuvi boshqaruvi

3.1.1. Manfaatlarni to‘qnashuvi AJ xodimining shaxsiy manfaatdorligi (bevosita yoki bilvosita) uning o‘z xizmat vakolatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolar, jamiyat yoki davlat organining huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatdir. AJ manfaatlarni to‘qnashuvini boshqarish (oldini olish va bartaraf etish) bo‘yicha chora-tadbirlarni belgilaydi va amalga oshiradi.

3.1.2. AJ xodimlari o‘z xizmat vazifalarini halol va vijdonan bajarishlari, o‘z lavozim va xizmat mavqeidan, shuningdek AJ ixtiyoridagi mol-mulkdan shaxsiy maqsadlarda foydalanmasliklari, manfaatlarni to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga yo‘l qo‘ymasliklari shart.

3.1.3. AJ xodimlari ishga qabul qilishda, xizmat bo‘yicha ko‘tarilishda va rotatsiyada manfaatlarni to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har yili va tegishli vaziyatlar/sharoitlar yuzaga kelishiga qarab oshkor qilishlari shart.

3.1.4. Manfaatlarni to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda AJ xodimi zudlik bilan o‘z rahbarini yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

Manfaatlarni to‘qnashuvini aniqlash va hal qilish usullari, manfaatlarni to‘qnashuvi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor qilish turlari va usullari "Uzbekistan Airways" AJning Manfaatlarni to‘qnashuvining oldini olish va hal qilish tartibi talablari bilan tartibga solinadi.

3.1.5. Komplayens-nazorat xizmati Manfaatlarni to‘qnashuvini hisobga olish reyestrini yuritadi hamda aniqlangan manfaatlarni to‘qnashuvi holatlari hisobining o‘z vaqtida va to‘liq yuritilishi uchun javob beradi. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi AJ xodimlari uchinchi shaxslar bilan hamkorlik qiladigan barcha funksiyalarda (masalan, tenderlarni tashkil etish, reytinglarni hisoblash va boshqalar) manfaatlarni to‘qnashuvini aniqlash bo‘yicha nazorat tartib-qoidalarini o‘z vaqtida bajarishga ko‘maklashadi.

3.1.5.1. Etika bo‘yicha komissiya aniqlangan manfaatlarni to‘qnashuvini ko‘rib chiqadi va manfaatlarni to‘qnashuvini hal qilish choralari ko‘radi, har yarim yilda haqiqiy yoki potensial manfaatlarni to‘qnashuvlari to‘g‘risida xulosa qabul qiladi va ularni hal qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralarning yetarililigini (to‘g‘riligini) ko‘rib chiqadi.

3.2. Ish munosabati bilan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilarini qabul qilish

3.2.1. AJ xodimiga (uning oila a’zolariga) tekinga berilgan moddiy qiymatga ega bo‘lgan mol-mulk yoki AJ xodimiga (uning oila a’zolariga) tekinga ko‘rsatilgan xizmat sovg‘a hisoblanadi.

AJ xodimlariga xizmat vakolatlarini bajarish yoki bajarmaslik evaziga jismoniy va yuridik shaxslardan sovg‘alar, ishbilarmonlik mehmondo‘stligi belgilari, shu jumladan kreditlar (qarzlar), kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar, bonuslar, moliyaviy yordam, naqd pulsiz va pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatli qog‘ozlar, kriptovalyutalar, boshqa moddiy boyliklar yoki xizmatlarni olish yoki berish taqiqlanadi.

